

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEVA MALIKAJON CHOSHOVNA

**INKLYUZIV TA'LIMDA FILOLOG TALABALARNING LEKSIK
KOMPETENSIYASINI KORPUS TAHLILLAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH
(ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Fayziyeva Malikajon Choshovna

Inklyuziv ta’limda filolog talabalarning leksik kompetensiyasini korpus tahlillar asosida rivojlantirish (ingliz tili misolida).....5

Fayzieva Malikajon Choshovna

Developing philology students’ lexical competence based on corpus analyses in inclusive education (on the example of English)..... 29

Файзиева Маликажон Чошовна

Развитие лексической компетенции студентов-филологов в условиях инклюзивного образования на основе корпусного анализа (на примере английского языка)..... 53

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....58

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZIYEVA MALIKAJON CHOSHOVNA

**INKLYUZIV TA'LIMDA FILOLOG TALABALARNING LEKSIK
KOMPETENSIYASINI KORPUS TAHLILLAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH
(ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9493 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ataboyev Nozimjon Bobojon o‘g‘li
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Bakayev Najmiddin Bakayevich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Isroilova Dildora Muxtorovna
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “2” iyun soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)


Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Q/903 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “19” may kuni tarqatildi.

(2026-yil “20” may dagi 20 raqamli reestr bayonnomasi)


M.B.Axmedova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.b., filologiya fanlari doktori (DSc)


Y.B. Ro‘ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


Sh.Sh. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xorijiy tillar ta'limi jarayoni an'anaviy grammatik tarjima metodidan hozirgi kun talabiga mos chet tilida gapirish va muloqotni rivojlantiruvchi kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching) metodlariga yuz tutmoqda. Zotan, aniq vazifa va loyiha asosida, muayyan fan va tilning birlashuvi natijasida, aralash ta'limga yo'naltirilgan holda sun'iy ong hamda kompyuter yordamida til o'qitish, xususan, korpus tahlillarga asoslangan ta'lim materiallarini tayyorlash zamonaviy avlod shakllanishining global mezonini belgilaydi. Bu borada lingvistik korpusning ilmiy-amaliy samaradorlik darajasi yuqoriligi, xususan, o'rganilayotgan xorijiy tilda so'zlashuvchi til sohiblarining muloqot shakllari, nutqiy faoliyat uchun ulkan lisoniy bazani jamlay olishi til o'rganuvchilarining leksik-grammatik kompetensiyalarini ayni misollar asosida rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan yondashilganda chet tilini o'qitishning inklyuziv ta'limga xoslangan lingvistik korpus tahlillari asosida takomillashtirilishi ham davr talablariga xos dolzarblik kasb etadi.

Dunyo inklyuziv ta'limida, ayniqsa, ko'rish qobiliyati cheklangan talabalar uchun chet tilini o'qitishning eng ilg'or usullari sirasiga audioga asoslangan kommunikativ yondashuv, brayl asosida, Screen Readers va AI vositalari orqali, og'zaki muloqotga tayanuvchi tabiiy yondashuv, podcast, audiokitob va audiodialoglar, nutqdan matnga va matndan nutqqa integratsiyasi, katta til bazalari, jumladan, muayyan korpuslar vositasida chet tilini o'qitish kabilarni kiritish mumkin. Inklyuziv ta'limda korpus tahlillarni qo'llash, ya'ni turli mazmun va hajmdagi lingvistik korpuslardan foydalanilganda ularning tarkibidagi har bir leksik birlik, so'z birikmasi, turg'un birikma yoki atama o'zining nutqiy faollik darajasi haqida autentik ma'lumot olish imkonini beradi. Tabiiyki, bunda korpus ta'lim vositasiga aylanadi va tilning leksik, morfologik, sintaktik tahlillarida, hatto tarjima nazariyasi va amaliyotida ham samarali ishlash, har bir birlikning uslubiy xosligini aniqlashga imkon yaratadi. Zero, lingvistik korpuslarning yangi avlodi inklyuziv o'qitishda ingliz tilining integratsion ta'limini ta'minlash hamda talabalarning leksik kompetentligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi strategik hujjatlarda, xususan, inklyuziv ta'limga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, "Uzbekistan Partnership Compact for Education Reform", odatda, jismoniy rivojlanishida alohida ehtiyojlari bo'lgan yoshlarning sog'lom tengdoshlari bilan birga sifatli ta'lim olishlarini ta'minlaydigan tizimni mustahkamlash va ta'lim muassasalarida ularga boshqa ta'lim oluvchilar bilan teng imkoniyatlar yaratish o'qitishning barcha bosqichlarida bosh maqsad qilib belgilangan. Mazkur hujjatlar doirasida inklyuziv ta'lim standartlari, o'qituvchilarni tayyorlash yangilanib kelmoqdaki, bunda chet tili o'qituvchilarini ham "inklyuziv dars berishga tayyorlash va o'quv materiallarini moslashtirish (audio, brayl, raqamli format) bo'yicha asos"¹

¹ Uzbekistan partnership compact for education reform. URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5671/file> (Murojaat sanasi: 29.11.2025)

yaratish ahamiyatli sanaladi. Zotan, jamiyat a'zolarining inklyuziv ta'lim bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish, ingliz tili ta'limini xoslangan lingvistik korpus tahlillariga asoslanib, integratsion yondashuvda amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish hamda uni keng amaliyotga tatbiq etish ham monografik plandagi ishlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-209-son 2022-yil 18-apreldagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-son "O'zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda korpus lingvistikasi tilni o'rganadi, o'rgatadi va tahlil qiladi. So'nggi o'n yillikda til ta'limi uchun til korpusi va kompyuter vositalaridan foydalanishga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Muayyan tilning tabiatidan va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tilning kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilinishi kompyuter lingvistikasi, statistik lingvistika hamda korpus lingvistikasi kabi bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlarni yuzaga keltirdiki, ulardan til o'qitish metodikasida ham foydalanishga keng yo'l ochildi. Xususan, mazkur soha rivojiga hissa qo'shgan olimlar sifatida B.Kennedy, S.Gries, D.Biber, S.Konrad va J.Sinkler²ning ilmiy ishlarini keltirish mumkin. Mamlakatimizda

² Cennedy B., Hoover J. et.al. Moral Foundations Twitter Corpus: A Collection of 35k Tweets Annotated for Moral Sentiment./ <https://journals.sagepub.com/doi/epub/10.1177/1948550619876629>, 2020. – Pp. 1057-1071.; Gries S. Syntactic Priming: A Corpus-based Approach. *Journal of Psycholinguistic Research*, 2005. – Pp. 366-399.; Biber D. Methodological Issues Regarding Corpus-based Analyses of Linguistic Variation. *Literary and Linguistic Computing*, <https://doi.org/10.1093/lc/5.4.257>. – 1990. – P. 257 – 269.; Konrad R., Hanke T., Gabriele L., Susanne K., Lutz K., Rie N., Anja R. *Public DGS Corpus: Annotation Conventions*. <https://www.fdr.uni-hamburg.de/record/823>, 2022; Sinclair J. *Teaching and Language Corpora*. 9781315842677_previewpdf (1).pdf, 1998. – Pp. 25- 40.

tillarini o'qitish metodikasi bilan G.X.Boqiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, L.T.Axmedova, M.T.Irisqulov, F.M.Rashidova³ kabi olimlar shug'ullanishgan, shuningdek, F.Sh.Alimov, Sh.H.Akbarova, U.A.Masharipova, G.S.Sabirova, G'.Sh.Tajibayev, X.U.Saydullayeva⁴ kabi mutaxassislar tadqiqotlarida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va muammolariga oid nazariy mulohazalar o'z ifodasini topgan. Inklyuziv ta'limda leksik kompetensiyani rivojlantirish, chet tillarini o'rganish hamda o'rgatishning pedagogik va psixologik asoslari L.Florian, K.Blak-Hokins, P.Mitler, R.Sli, R.Barnet, N.Alzahrani, D.Mitchel, D.Sazerlen, T.Makarova, N.Ershova, V.Chiginseva, I.Kireyeva, V.Djabrailova, M.Fomicheva⁵ kabi olimlarning metodika sohasidagi ishlarida alohida tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek tilining elektron, milliy, ta'limiy va parallel korpuslarini yaratish amaliyoti hamda ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish borasida N.Z.Abdurahmonova, Sh.M.Xamroyeva, G.I.Toyrova, G.X.Begmatova, A.A.Raxmanova, O'.M.Xoliyov, D.Q.Elova, N.B.Ataboyev va R.A.Karimov⁶ kabi olimlarning salmoqli ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish o'rinli.

³ Бакиева Г., Махкамова Г., Кулдошев А. English 3. – Ташкент, 2007.; Jalolov J., Makhkamova G., Ashurov Sh. English Language Teaching Methodology.–Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 338 p., Axmedova L.T. Личностно-ориентированный подход к современному обучению и воспитанию студентов высших учебных заведений // Узбекистонда хорижий тиллар, 2016. – № 4 (12). – С. 256-260.; Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни ўргатиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим. – Т., 2016. – № 6. – Б. 70-71.; Ирисқулов М.Т. Чет тилларни ўқитишда CEFR ўрни // Узлуксиз таълим. – Т., 2016. – № 1. – Б. 77-83.

⁴ Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш: Пед. фан. бўй. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф.–Т., 2018.–42 б.; Акбарова Ш.Х. Мактабгача ёшдаги болаларга инглиз тили лексикасини ўргатиш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф.–Т., 2020. – 53 б.; Машарипова У.А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф.–, 2018. – 45 б.; Сабирова Г.С. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларига инглиз тили олмошларини ахборот технологиялари асосида ўргатиш методикаси: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф.–Т., 2017.–41 б.; Тажибаев Г.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларига чет тили ўқитишда коммуникатив ёндашув: Пед. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Т., 2018. – 45 б.; Saydullayeva X. U. Konchilik yo'nalishi talabalarida ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish metodikasi: Ped.fan.bo'y. fals. d-ri (PhD)... diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – 63 b.

⁵ Florian L., Black-Hawkins K. Exploring inclusive pedagogy // British Educational Research Journal, 2011. – Vol. 37, No. 5. – P. 813–828.; Mittler P. Working towards inclusive education: Social contexts. – London: David Fulton Publishers, 2012.; Slee R. Defining the scope of inclusive education // International Journal of Inclusive Education, 2018. – Vol. 22, No. 1. – P. 1–17.; Barnett R. Leading with meaning: Why diversity, equity, and inclusion matters in US higher education // Perspectives in Education, 2020. – Vol. 38, No. 2. – P. 20–35.; Alzahrani N. The development of inclusive education practice: A review of literature // International Journal of Early Childhood Special Education, 2020. – Vol. 12, No. 1. – P. 68–83.; Mitchell D., Sutherland D. What really works in special and inclusive education: Using evidence-based teaching strategies. – London: Routledge, 2020; Чигинцева В.В. Особенности формирования лингвистической компетенции обучающихся с ограниченными возможностями здоровья // Вестник Томского государственного педагогического университета, 2016. – № 3 (168). – С. 96–101; Макарова Т.С. Адаптация общеобразовательных программ к специальным образовательным потребностям обучающихся с ОВЗ // Инклюзивное иноязычное образование сегодня: проблемы и решения, 2017. – С. 22–32; Киреева И.А., Джабраилова В.С., Фомичева М.П. Лингводидактический потенциал электронных средств учебного назначения при обучении иностранным языкам в инклюзивном образовании // Концепт, 2018. – № 6. – С. 55–65.; Ершова Н.А. Формирование инклюзивной компетентности педагогов общеобразовательных учреждений // Наука и образование: сохраняя прошлое, создаём будущее, 2020. – № 49.

⁶ Abdurahmonova N.Z. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari: Filol. fan. d-ri... (DSc) diss. avtoref. – Т., 2021. – 73 б.; Хамроева Ш.М. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 76 б.; Тоирова Г.И. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 72 б.; Бегматова Г.Х. Ўзбек тили миллий корпусида идиомалар базасини яратиш: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс.–Термиз, 2021.–143 б.; Рахманова А.А. Ўзбек тили миллий корпусини яратишдаги компьютер усуллари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс.–Т., 2021.–161 б.; Холиёров У.М. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Термиз, 2021. – 181 б.; Каримов Р.А. Ўзбек-инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс.– Бухоро, 2022.– 48 б.; Элова Д.Қ. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамойиллари ва лингвистик таъминоти: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. автореф.– Т., 2022. – 65 б.; Ataboyev N. Mediamatnlar diaxronik korpusida til rivojining empirik tahlil tamoyillari (gazeta materiallari misolida): Filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. – Farg'ona, 2024. – 72 b.

Aytish joizki, inklyuziv ta'limda talabalarning ingliz tili leksik kompetentligini korpus materiallari tahlillari asosida rivojlantirish, ularning so'z boyligini korpus materiallari tahlillari asosida oshirishdagi metodik muammolar va ularning yechimi masalalari tizimli ravishda batafsil tadqiq etilmagan, shuningdek, bu borada zaruriy ilmiy-metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining "Korpus lingvistikasi, amaliy tilshunoslik va xorijiy tillarni o'qitish" (2023-2026) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi inklyuziv ta'lim sharoitida filolog talabalar, jumladan, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning ingliz tili leksik kompetentligini korpus tahlillar asosida rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

inklyuziv ta'limda filolog talabalarning ingliz tili leksik kompetentligini rivojlantirish jarayonini xalqaro tajribalar asosida o'rganish hamda didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

lingvistik korpus va korpus materiallarining xorijiy tillarni o'qitishdagi o'rni va ahamiyatini integrativ yondashuv asosida nazariy jihatdan tahlil qilish va aniqlashtirish;

inklyuziv ta'lim sharoitida filolog talabalar, jumladan, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning ingliz tili leksik kompetentligini korpus tahlillar asosida rivojlantirish modelini tuzish;

korpusga asoslangan autentik materiallar yordamida filolog talabalarning leksik birliklar va kollokatsiyalarni to'g'ri ishlatishga oid kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha didaktik ta'minotni takomillashtirish, tajriba-sinov samaradorligini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida inklyuziv ta'limda filolog talabalarning leksik kompetensiyasini korpus tahlillar asosida rivojlantirish jarayoni olingan. Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Farg'ona davlat universitetlarining 396 nafar talabasi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini inklyuziv ta'lim muhitida filolog talabalarning leksik kompetensiyasini korpus tahlil natijalari asosida rivojlantirishning shakl, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish, korpus tahlil, empirik tahlil, so'rovnomalar o'tkazish, tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, shuningdek, maxsus pedagogik metodlar – kuzatish, tajriba, og'zaki va yozma so'rovlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalqaro inklyuziv ta'lim tizimida mavjud chet tillarini o'qitishning audio-kommunikativ yondashuv, brayl asosidagi o'quv jarayoni, avtomatik o'quvchi va sun'iy intellekt vositalari, og'zaki muloqotga asoslangan tizim, tabiiy yondashuv, podkast, audiokitob va audio dialoglarga asoslangan o'qitish, nutqdan matnga va

matndan nutqqa integratsiyasi kabi usul va vositalar qatorida korpus tahlillariga asoslangan o'qitishning ahamiyati ochib berilgan;

filolog talabalarining inklyuziv ta'limda ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda korpus tahlil natijalarining statistik va autentik materiallar bazasi sifatida konkordans qatorlari, so'z qo'llashga doir misollar ko'lami, kalit so'zning kontekstda qo'llanilishi (KWIC), kollokatsion birliklarni aniqlash imkoniyati, ko'pso'zli iboralar (Multi-Word Expressions – MWE's) negizida so'zlardan to'g'ri va erkin foydalanish ko'nikmasini shakllantirish mexanizmi asoslangan;

inklyuziv guruhlar uchun mos avtomatik lingvistik tahlillarni amalga oshiruvchi COCA, Sketch Engine, AntConc kabi korpus dasturiy qurilmalari asosida leksik birliklar va kollokatsiyalarni to'g'ri ishlatish darajalarini belgilovchi mashqlar tizimi va brayl alifbosi bo'yicha nashr etilgan o'quv qo'llanma yaratish orqali ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

inklyuziv ta'lim muhitida filolog talabalarining so'z qo'llashga doir leksik kompetensiyasini raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuter qurilmalari va internet tarmoqlarida mavjud ingliz tili korpuslari tahlil natijalari asosida rivojlantirish modelining samaradorligi matematik-statistik tahlillarga ko'ra dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

inklyuziv ta'lim sharoitida filologiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetentligini va soha mutaxassislari, pedagoglarning inklyuziv pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan korpus asosidagi o'quv jarayonining didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan hamda ushbu jarayonning nazariy tahliliga bag'ishlangan "Reading Passages: A Corpus-Based Approach to Foster Lexical Competence in Inclusive Education" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

korpus lingvistikasi asosida til o'zlashtirishning turli darajalariga hamda imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar uchun moslashtirilgan, leksik birliklarni tanlash, ularning kollokatsion xususiyatlarini aniqlash va kontekstual qo'llashga yo'naltirilgan mashqlar tizimining samaradorligi dalillangan va ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar inklyuziv o'quv jarayoniga tatbiq etilgan;

inklyuziv guruhlarda leksik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi differensiallashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash mexanizmlari takomillashtirilgan hamda yaratilgan amaliy topshiriqlar va korpus tahliliga asoslangan o'quv materiallari tajriba-sinov orqali darslarga muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning nazariy va metodik asosini ishonchli ilmiy manbalar tashkil etadi. Natijalarning ta'lim jarayoniga joriy qilinganligi, ilmiy seminarlar, konferensiyalar va metodik ishlarda tatbiq etilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligiga dalil sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot asosida chiqarilgan xulosalar bo'yicha e'lon qilingan ishlar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanganligi, aniqlangan muammo ijtimoiy va pedagogik metod (tashkil qilish, ma'lumot yig'ish, kuzatish, anketa, suhbat, dialoglar); eksperiment-tajriba (diagnostika va nazorat vositalari) kabi amaliy

usullar yordamida yechilganligi, nazariy xulosa va farazlarning amaliyotga tatbiq qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati inklyuziv ta'limda filologiya talabalari leksik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi, xususan, chet tillarini o'qitish metodikasi va qiyosiy tilshunoslikda, amaliy kompyuter lingvistikasi sohasida, xorijiy ta'lim yo'nalishlari uchun adabiyotshunoslik va mamlakatshunoslikda, TELL (Technology Enhanced Language Learning) / CALL (Computer-assisted Language Learning) sohalarida, ya'ni zamonaviy texnologiya va kompyuter asosida til o'rganish va o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda, til o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari, madaniyatlararo kommunikatsiya fanlarini o'qitish uchun nazariy manba bo'la olishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kompyuterlashtirilgan korpus va leksik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha ma'ruza, seminar va treninglar tashkil etishda, sohaga oid turli dasturlar, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, til o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalar, kompyuter dasturlari va korpus tahlillaridan samarali foydalanishni ta'minlashda, amaliy dars va laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Inklyuziv ta'lim muhitida filologiya yo'nalishi talabalarining leksik kompetentligini korpus tahlillar asosida rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra:

xalqaro inklyuziv ta'lim tizimida mavjud chet tillarini o'qitishning audio-kommunikativ yondashuv, brayl asosidagi o'quv jarayoni, avtomatik o'quvchi va sun'iy intellekt vositalari, og'zaki muloqotga asoslangan tizim, tabiiy yondashuv, podkast, audiokitob va audio dialoglarga asoslangan o'qitish, nutqdan matnga va matndan nutqqa integratsiyasi kabi usul va vositalar qatorida korpus tahlillariga asoslangan o'qitishning ahamiyatiga oid xulosalar AQSHning Arkanzas shtatidagi Arkanzas universitetida (University of Arkansas, Arkansas, USA) inklyuziv ta'limda ingliz tilini o'qitish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy seminarlar va akademik uchrashuvlarda xalqaro ekspertlar muhokamasiga havola etilgan. Arkanzas universiteti talabalari, izlanuvchilari hamda McNair va Owl Creek maktabi o'quvchilari uchun "Inklyuziv ta'lim va imkoniyati cheklangan talabalarga bilim va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashish" mavzusida tadqiqot taqdimotlari o'tkazilgan (AQSHning Arkanzas shtatidagi Arkanzas universitetining 2023-yil 8-maydagi, Buxoro davlat universiteti Xalqaro aloqalar bo'limining 2026-yil 24-yanvardagi 06/445-son ma'lumotnomalari). Natijada korpus tahlilining dars jarayonida qo'llanishi, talabalarning kontekst asosida lug'at boyligini oshirish modeli, differensial topshiriqlar tizimining inklyuziv ta'lim bilan uyg'unligi bo'yicha Amerika olimlari bilan hamkorlikda tajriba almashinib, tadqiqot natijalarining metodik va nazariy asoslarini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

filolog talabalarining inklyuziv ta'limda ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda korpus tahlil natijalarining statistik va autentik materiallar bazasi sifatida konkordans qatorlari, so'z qo'llashga doir misollar ko'lami, kalit so'zning

kontekstda qo'llanilishi (KWIC), kollokatsion birliklarni aniqlash imkoniyati, ko'pso'zli iboralar (Multi-Word Expressions – MWE's) negizida so'zlardan to'g'ri va erkin foydalanish ko'nikmasini shakllantirish mexanizmi asoslangani xususidagi xulosalardan, raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuter qurilmalari va internet tarmoqlarida mavjud ingliz tili korpuslari tahlil natijalari asosida rivojlantirish modelining samaradorligi matematik-statistik tahlillarga ko'ra isbotlanganligiga oid xulosa va tavsiyalardan Buxoro davlat universiteti axborot resurs markazi hamda inklyuziv markazi o'quv adabiyotlari yanada boyitildi va talabalar tomonidan tegishli darslar davomida samarali foydalanildi (Buxoro davlat universiteti o'quv bo'limining 2026-yil 26-yanvar sanasidagi 450-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan korpusga asoslangan mashq-komplekslar, kollokatsion tahlil topshiriqlari, real kontekstlardan olingan leksik birliklar bilan ishlash metodlari hamda turli til darajasiga ega bo'lgan talabalarning ehtiyojlarini qondiruvchi differensiallashtirilgan o'quv faoliyatlaridan talabalar leksik kompetentligini oshirishda samarali foydalanish yo'lga qo'yildi;

inklyuziv guruhlar uchun mos avtomatik lingvistik tahlillarni amalga oshiruvchi COCA, Sketch Engine, AntConc kabi korpus dasturiy qurilmalari asosida leksik birliklar va kollokatsiyalarni to'g'ri ishlatish darajalarini belgilovchi mashqlar tizimi va brayl alifbosi bo'yicha nashr etilgan o'quv qo'llanmani yaratish orqali ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti takomillashtirilganligiga oid natijalardan ko'zi ojizlar jamiyati a'zolari ishtirokidagi xorijiy til o'quv mashg'ulotlari va seminar trening dasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Buxoro viloyati bo'limining 2025-yil 4-dekabrda 2/3-67-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur taqdimotlar tinglovchilarning mustaqil lug'at boyligini kengaytirish, matn tahlilida kontekstual tushunishni shakllantirish hamda nutq faoliyatida aniqlikni oshirishda samara bergan;

inklyuziv ta'lim muhitida filolog talabalarning so'z qo'llashga doir leksik kompetensiyasini raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuter qurilmalari va internet tarmoqlarida mavjud ingliz tili korpuslari tahlil natijalari asosida rivojlantirish modelining samaradorligi matematik-statistik tahlillarga ko'ra dalillangan xulosalardan Buxoro teleradiokompaniyasining "Dolzarb mavzu" ko'rsatuvi hamda Buxoro radiosining "Kun mavzusi" eshittirishida samarali foydalanilgan (Buxoro teleradiokompaniyasi Buxoro viloyati davlat muassasasining 2025-yil 11-noyabrda 01-577-son ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarga ta'lim jarayonida raqamli korpuslardan foydalanishning samaradorligi va inklyuziv ta'lim tamoyillarining afzalliklari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari asosida 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola: 3 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan. Shuningdek, 3 ta respublika konferensiyalari to'plamlarida, 5 ta xalqaro konferensiya to'plamlarida tezislar nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda natijalarning joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Inklyuziv ta'lim va korpus lingvistikasining nazariy asoslari”** nomli birinchi bobida inklyuziv ta'lim tushunchasi va uning chet tillarini o'qitish jarayonidagi xususiyatlari, korpus tahlillarining inklyuziv ta'limda qo'llanilishiga doir tamoyillar, korpus lingvistikasi va leksik kompetensiya tushunchalari, inklyuziv ta'limga asoslangan til o'rgatish muhitini yaratishda korpusning ahamiyati borasida ilmiy-nazariy mulohaza yuritilgan.

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchi va talabalar, shu jumladan, nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar va yoshlarga umumiy ta'lim muassasalarida teng imkoniyatlar yaratishga asoslangan ta'lim modeli hisoblanadi⁷. Mazkur ta'lim tizimi talabalarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy holatidan qat'i nazar, ularning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim faqat nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlarni emas, balki til, madaniyat va o'quv imkoniyatlaridagi farqlari tufayli to'laqonli faoliyati cheklangan o'quvchi, talabalarni ham qamrab oladi. Ushbu yondashuv har bir insonning ta'lim olish huquqi ta'minlanganligini diqqat markaziga ko'chiradi va integrativlik asosida ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim sharoitida chet tillarini o'qitish talabalarning til o'zlashtirish borasidagi ehtiyojlariga moslashtirilgan pedagogik metod va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

⁷ UNESCO. Policy Guidelines on Inclusion in Education [Electronic resource]. – Paris : UNESCO, 2009. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000177849> (accessed: 15.03.2024).



1-rasm. Inklyuziv ta'lim tamoyillarining strukturaviy chizmasi

Mazkur sxema inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillarini aks ettiradi. U barqarorlik va teng imkoniyatlar yaratish, o'quv jarayonining moslashuvchanligi, ijtimoiy inklyuziya, hamkorlikka asoslangan yondashuv hamda pedagoglarning doimiy malaka oshirishini ta'minlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Kuzatishlarimiz ko'rsatadiki, ba'zan inklyuziv ta'lim mohiyatan maxsus ta'lim bilan qorishtiriladi. Quyidagi jadvalda inklyuziv ta'lim, maxsus ta'lim hamda umumiy ta'limning o'ziga xos jihatlari tasvirlangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Inklyuziv ta'lim, umumiy ta'lim va maxsus ta'limning asosiy xususiyatlari

Ta'lim shakli	Kimlar uchun?	Talabalar qayerda o'qiydi?	Dasturi qanday?
Umumiy ta'lim	talabalarning barchasi uchun	oddiy sinfda	standart dastur
Maxsus ta'lim	maxsus ehtiyojli talabalar uchun	alohida sinf/markazda	moslashtirilgan yoki maxsus dastur
Inklyuziv ta'lim	barcha talabalar, shu jumladan, maxsus ehtiyojli talabalar uchun	oddiy sinfda	moslashtirilgan, qo'llab-quvvatlovchi dastur

Hozirgi kunda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ko'plab yutuqlar va o'zgarishlar kuzatilmoqda (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim bilan bog'liq islohotlar

O'zbekistondagi islohotlar	Izoh
Qonunchilik islohotlari	“Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi qonun ⁸
Inklyuziv sinflar va moslashtirilgan dasturlarning tashkil etilishi	Xalqaro hamkorlik asosida moslashtirilgan sinflar tashkil qilinishi ⁹
Pedagog xodimlarni tayyorlash	Malaka oshirish va treninglar
Texnologiyalar bilan ta'minlash	Maxsus texnik vositalarning joriy etilishi

⁸ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risida” Qonuni //https://lex.uz/docs/-5013007.; 2020-yil 15-oktabrdagi O'RQ-641-son “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” Qonuni. // https://lex.uz/acts/-5049511 (Murojaat sanasi: 13.05.2024).

⁹ UNICEF Uzbekistan. Inclusive Education in Uzbekistan: Progress and Challenges. – Tashkent: UNICEF, 2020. //https://www.unicef.org/uzbekistan/reports/inclusive-education-uzbekistan-progress-and-challenges (Accessed: 14.05.2024).

O‘zbekistonda muvaffaqiyatli inklyuziv ta’lim muhitini joriy qilish uchun ta’lim tizimida modifikatsiyalarni amalga oshirish, pedagoglarni tayyorlash va texnologik qo‘llab quvvatlash jarayonlarini yanada rivojlantirish zarur.

Ehtiyojlar tahlili(needs analysis)ga tegishli testlari yoki so‘rovnomalar orqali aniqlangan muammolar yechimiga ko‘ra talabalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holatda pedagoglar dasturlarni muvofiqlashtirishlari zarur. Qolaversa, ularning xohish va istaklarini ham inobatga olib, o‘quv materiallarini moslashtirishlari chet tili darslarini har tomonlama to‘laqonli bo‘lishiga xizmat qiladi. Bu jarayon inklyuziv ta’limda korpus tahlillari asosida moslashtirilgan resurslarni yaratish, so‘z boyligi va grammatik murakkablikni tahlil qilish, ijtimoiy inklyuzivlikni oshirish, multimodal resurslarni ishlab chiqish kabi tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

Chet el tajribasida har bir talaba uchun alohida ta’lim rejasi, ya’ni “Individualized Educational Plan” (IEP) tuziladi hamda individual yondashuv ta’minlanadi. Korpus tahlillari orqali talabalarning kundalik hayotida qo‘llaniladigan real kontekstual tilni tanlash va o‘rgatish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, tilda tayyor birlik sifatida qabul qilinadigan ko‘pso‘zli tuzilmalar (*Multi-Word Expressions – MWE*), masalan, *take into account (hisobga olmoq), by and large (umuman olganda, asosan)*; kalit so‘zning kontekstda ko‘rsatilishi (Key Word in Context – KWIC); so‘zlarning tilda odatdagi, ehtimolli birga kelishi – kollokatsiyalar (*masalan, make a decision (qaror qabul qilmoq), do a decision emas*) kabi birliklarni tahlil qilish asosida korpus vositalari turli talabalar uchun mos lingvistik tuzilmalarni aniqlash orqali inklyuziv ta’limni qo‘llab quvvatlaydi. MWE, KWIC va kollokatsiya usullari inklyuziv guruhlarda leksik birliklarni kontekst va tayyor tuzilmalar asosida o‘rgatgani sababli kognitiv yukni kamaytiradi, ishchi xotiraga motivatsiya beradi va bu psixolingvistik jihatdan tabiiy til o‘zlashtirish mexanizmlariga mos keladi. Ko‘pso‘zli tuzilmalar (MWE), kalit so‘zning kontekstda ko‘rsatilishi (KWIC), so‘zlarning odatiy birikishi – kollokatsiya(collocation)ga qo‘shimcha misollar bilan ilovalar havolasi (https://drive.google.com/file/d/1U_zqkzIIS2dA-L-SPfuHBtj_ehGkbzDk/view?usp=sharing) orqali tanishish mumkin (1.1.3-, 1.1.4-, 1.1.5-jadvallarga qarang).


Quyida zamonaviy elektron gadjetlarga osonlik bilan skanerlash orqali dissertatsiya ilovalari havolasini yuklab olish uchun qulay QR kod formasi ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Dissertatsiya ilovalari havolasiga o‘tish uchun QR kod

Bizningcha, korpus tahlillarining amaliy qo‘llanilishi o‘qituvchilarni qo‘llab quvvatlash; interaktiv ta’lim platformalari; foydalanuvchi markazlashgan yondashuv; sodda va aniq ko‘rsatmalar berish; qiyinchiliklarni aniqlash va hal qilish kabi muhim amallardan iborat. Quyidagi diagrammada yuqoridagi mulohazaning mantiqiy davomi sifatida teng imkoniyatlar, differensial yondashuv,

motivatsiya hamda pedagoglarni inklyuziv ta'limdagi roli nihoyatda muhimligi alohida ko'rsatilgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Chet tilini o'rgatishda inklyuziv ta'limning afzalliklari

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Korpus tahlillari ushbu yondashuvning bir qismi sifatida *o'quv dasturlarining moslashtirilishi, o'zbek tili Milliy korpusi loyihasi kabi mahalliy korpuslar yaratish; xalqaro hamkorlik va tajriba almashish, chet tillarini o'qitishda korpus tahlillari, interaktiv texnologiyalar hamda raqamli resurslar yaratish* kabi yo'nalishlarda qo'llanilmoqda:

Korpus – tilni ilmiy asosda o'rganish uchun tuzilgan, elektron shakldagi, tizimli va belgilangan mezonlar asosida tanlangan katta hajmdagi autentik matnlar to'plamidir. Til korpusi lingvistik tadqiqotlar uchun maxsus tuzilgan, elektron shaklda saqlanadigan va autentik matnlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Korpus tahlili esa, ushbu bazadagi til birliklarini kompyuter texnologiyalari yordamida chastota, kontekst, kollokatsiya va funksional jihatdan o'rganishga qaratilgan metod sanaladi. Korpusga asoslangan ta'limning asosiy yondashuvi bo'lmish muayyan ma'lumotlarga tayanuvchi ta'lim (*Data-Driven Learning – DDL*) talabalarga real til materiallari asosida til birliklarining qo'llanish usullari va qoidalarini mustaqil aniqlash imkonini beradi hamda induktiv ta'limning ustuvorligini ta'minlaydi (4-rasmga qarang).




4-rasm. Korpusga asoslangan yo‘riqnomaning to‘rt bosqichli jarayoni

Mazkur jarayonda asosiy atamalarning mohiyatini anglash maqsadida muvofiqliklarni aniqlash, leksik-grammatik qoliplarni tahlil qilish, mashqlarda faol ishtirok etish hamda produktiv ko‘nikmalarda yangi o‘zlashtirilgan lug‘at birliklaridan foydalanish imkoniyati yaraladi.

Inklyuziv ta‘limga asoslangan til o‘rgatish jarayonida talabalarni individual ravishda kuzatish va baholash zarur. Korpus tahlillari mazkur jarayonda individualizatsiya va differensial yondashuvni qo‘llash, til boyligini oshirish, ehtiyojlarga mos materiallar (sodda va tushunarli vizual, audio va matnli materiallar) yaratish, ta‘lim materiallarini kontekstualizatsiya qilish, o‘quv jarayonini interaktivlashtirish, talabalarning nutq va yozuvdagi xatolarini tahlil qilish, multimodal ta‘lim resurslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Korpus tahlillari inklyuziv ta‘limda til o‘rgatish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida tajribali o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar tuzish, kengaytirilgan leksik bazalar, til o‘rganishning shaxsiylashtirilgan rejalarini yaratish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirishda korpus tahlillari jarayoni o‘zbek tilining Milliy korpusini yaratish, ta‘limda texnologiyalarni qo‘llash hamda xalqaro hamkorlik kabi bosqichlar va tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Korpus tahlillari va til o‘rganishda innovatsion yondashuvlar mashinali o‘qitish va sun‘iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalash hamda real vaqt rejimida tilni o‘rganish kabi muayyan qulayliklarni yuzaga keltiradi.


Korpus tahlilining inklyuziv ta‘lim nuqtayi nazaridan yondashilganda empirik metod, interaktivlik, diversifikatsiya kabi jihatlari mavjudligi kuzatiladi. Shu o‘rinda leksik kompetensiya va korpus lingvistikasi atamalariga e‘tibor qaratish zarur. Leksik kompetensiya talabalarning so‘z ma‘nolarini, ularning kontekstda qo‘llanilishi va so‘z birikmalarini o‘zlashtirishini ta‘minlaydi. Korpus lingvistikasi esa, til birliklarining tabiiy qo‘llanishini empirik asosda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ikki yondashuvning kesishgan nuqtasi talabalarda kontekstga asoslangan so‘z tanlash, kollokatsiyalarni to‘g‘ri qo‘llash va grammatik-leksik xatolarni kamaytirishni ta‘minlab, inklyuziv oliy ta‘limda til o‘rgatish samaradorligini oshiradiki, bu talabalarning leksik kompetensiya orqali kommunikativ mahoratlarini rivojlanishiga xizmat qiladi (5-rasmga qarang).



5-rasm. Leksik kompetensiya va korpus lingvistikasining oʻziga xos va oʻxshash jihatlari

Dissertatsiyaning “Inklyuziv taʼlimda leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan korpus tahlillar va metodik yondashuvlar” nomli ikkinchi bobida filolog talabalarning ingliz tili leksik kompetensiyasi, uni baholash metodlari va korpusga oid yondashuvlar, korpus tahlillarga asoslangan inklyuziv oʻquv materiallarini ishlab chiqish hamda korpus asosida leksik birliklarni oʻzlashtirish jarayonini takomillashtirish toʻgʻrisida fikr yuritilgan.

Korpusda kollokatsiyalarni oʻrganishda frazeologik va chastotaga asoslangan ikki asosiy anʼana mavjud. Bundan tashqari, gibriddan ham shakllangan boʻlib, u chastotaga asoslangan va frazeologik yondashuvlarning elementlarini oʻz ichiga oladi (6-rasmga qarang).



6-rasm. Korpusda kollokatsiyalarni oʻrganish anʼanalari sxemasi

AntConc kabi korpusga asoslangan vositalar o'qituvchilarga yuqori chastotali birikmalarni tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi. Misol uchun, fe'l-ot va sifat-ot birikmalari darsliklarda ko'p tarqalgan bo'lib, inklyuziv materiallarda qayerga e'tibor berish kerakligini ko'rsatadi. Korpus dasturiy vositalari bilan inklyuziv o'qitish turli darajadagi talabalar uchun moslashtirilgan materiallarni o'z ichiga oladi. Bunda disleksiyasi (o'qish kompetensiyasi shakllanishining cheklanganligi) bo'lgan talabalar uchun materiallar soddaroq va ko'proq ko'rgazmali (vizual) shaklda tayyorlanishi joiz.

Ingliz tilining leksik aspektlari uchun korpusga asoslangan metodlar qo'llanilmoqdaki, bunda talabalarning ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri ishlatish qobiliyatlari baholanadi. O'zbekiston OTMLarida ingliz tilida korpusga asoslangan metodlar qo'llanilsa-da, ba'zi universitetlarda hali bu usul yetarli darajada o'rganilmagan va amalga tatbiq etilmagan. Dunyo tajribasida korpus metodlari talabalarning tilni haqiqiy kontekstda ishlatish malakalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Zero, O'zbekiston ta'limida ham rivojlangan mamlakatlar qatori korpus asosida o'quv dasturlari va darsliklarining takomillashgan shakllarini yaratish zarurati seziladi.

Shuningdek, tadqiqotchining O'zbekistonning AQSH elchixonasi tomonidan taqdim etilgan "Pedagoglar malakasini oshirish dasturi" (Faculty Enrichment Program) granti sohibasi sifatida AQSHning Arkanzas shtatidagi Arkanzas universitetida olib borgan tadqiqoti va professional malaka oshirishi davomida inklyuziv ta'limda bevosita o'qitiladigan fanlar hamda fanlar doirasida ishlatiladigan muayyan texnika va texnologiyalar, maxsus dasturlar va ilovalar o'rganildi, tahlil qilindi. Bu boradagi o'quv reja va dasturlar bilan 2-rasmda berilgan QR kod formasini skanerlash orqali ilovalar havolasi (https://drive.google.com/file/d/1U_zqkzIIS2dA-L-SPfuHBtj_ehGkbzDk/view?usp=sharing)ga o'tib, tanishish mumkin (2.1.1-, 2.1.2-, 2.1.3-illovalarga qarang).

Quyida O'zbekiston va AQSH tajribasiga asoslangan inklyuziv ta'limdagi dasturlarning tahlili keltirilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

O'quv dasturlarining qiyosiy tahlili

Mezonlar	Arkanzas Universiteti, AQSH	Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston
		SPED 4433. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va darslarni rejalashtirish (Curriculum Development and Instructional Planning)
Inklyuzivlik darajasi	Juda yuqori – Individual ta'lim dasturi (Individualized Education Program/IEP), Yuqori samarador amaliyotlar (High Leverage Practices/HLP), Imkoniyati cheklangan talabalar markazi (Center for Students with Disabilities/CSD) bilan to'liq integratsiya mavjud.	Nazariy yondashuv ustuvor; inklyuzivlik qisman mavjud. Xorijiy tajribalar o'rganilgan, lekin mahalliy, ijtimoiy jihatdan moslashtirilgan amaliy mexanizmlar hali to'liq joriy qilinmagan. Universitetda inklyuziv markaz mavjud, ammo dasturda alohida ko'rsatma berilmagan.
Amaliy topshiriqlar	Aniq ta'riflangan; baholash ballari ko'rsatilgan.	Umumiy amaliy mashg'ulotlar bor, lekin individual ta'lim dasturi (IEP) kabi maxsus topshiriqlar haqida

		ma'lumot yo'q.
Baholash tizimi	Batafsil (ballar, baholar shkalasi).	Hujjatda baholash tizimi batafsil ko'rsatilmagan.
Qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi	Imkoniyati cheklangan talabalar markazi (CSD), rasmiy yo'l-yo'riqlar mavjud.	Mahalliy qo'llab-quvvatlash haqida hujjatda aniq ko'rsatilmagan, lekin inklyuziv markaz mavjud.
Korpus yondashuvi	Kursda korpus bo'yicha bevosita ko'rsatma yo'q (ammo o'qitish strategiyalari bor).	Dastur leksik kompetensiyani rivojlantirish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi; hujjatga korpus tahlillar, korpusga asoslangan yondashuvni ham qo'shish kerak.
Xulosa va tavsiya	Individual ta'lim dasturi (IEP), inklyuziv metodlar yaxshi integratsiyalashtirilgan, korpus vositalarini ham qo'shish maqsadga muvofiqdir.	Inklyuzivlik qisman mavjud yanada rivojlantirish hamda korpus va inklyuzivlikni birlashtirish uchun strukturaviy qo'shimchalar kerak.

Buxoro davlat universiteti filologiya yo'nalishi o'quv dasturida fanlarning kredit va soat taqsimoti yirik hajmdagi bloklar tarzida tashkil etilgan. Masalan, "O'qish va yozish amaliyoti" fani 1-6-semestrlarda o'qitilib, umumiy 32 ECTS kredit bilan belgilangan bo'lib, 960 soatlik umumiy yuklamani o'z ichiga oladi. Ushbu yuklamaning 390 soati auditoriya, 570 soati mustaqil ta'limga ajratilgani BuxDU tizimida talaba tomonidan mustaqil o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilishini ko'rsatadi. Haftalik dars soatlari semestrlarga qarab 4-6 soat oralig'ida belgilanadi va fan bir necha yil davomida izchil shaklda o'qitiladi.

Arkansas universitetining SPED 4433 – O'quv dasturlarini loyihalash va o'quv jarayonini rejalashtirish kursi esa, kredit va yuklama jihatidan mutlaqo boshqa modelga tayanadi. Kurs 3 kreditli bo'lib, AQSH ta'lim amaliyotiga xos ravishda auditoriya mashg'ulotlari aniq ko'rsatilgan bo'lsa-da, mustaqil ta'lim soatlari rasmiy raqamlar bilan ko'rsatilmaydi. Zero, AQSH oliy ta'limida amalda qo'llanadigan mezonga ko'ra, har 1 kreditga 2 soat mustaqil ta'lim to'g'ri kelishi qabul qilingan. Shu sababli mazkur kurs bo'yicha haftasiga o'rtacha 3 soat auditoriya mashg'ulotlari va 6 soat atrofida mustaqil ta'lim nazarda tutiladi. Biroq bu yuklama sillabusda aniq raqamlar bilan emas, balki o'qish topshiriqlari (*reading assignments*), uy vazifalari (*homework*), loyiha ishi (*project work*), Individual o'quv dasturini (*IEP*) tayyorlash kabi topshiriqlar shaklida berilgan. BuxDUda har bir fan bo'yicha auditoriya va mustaqil ta'lim soatlari aniq raqamlar bilan belgilanadi.

Shuningdek, kuzatishlar davomida aniqlaganimizdek, Arkanzas universitetida har bir dastur va asosiy darslikka asoslanib, butun kurs uchun 200-300 slayddan iborat taqdimot tayyorlangan bo'lib, ushbu taqdimot kurslar mobaynida talabalar uchun darsni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladigan vizual vosita sifatida qo'llaniladi. Masalan, Curriculum Development and Instructional Planning fani uchun 284 slayddan iborat taqdimot tayyorlangan (2.1.4-ildovaga qarang). Buxoro davlat universitetida ham har bir dars mavzusiga oid alohida taqdimotlardan foydalaniladi. Mazkur taqdimotlarni fan o'qituvchisi fan doirasidagi har bir mavzuga hamda turli guruh talabalarining darajalariga moslab tayyorlaydi (2.1.5-ildovaga qarang).

Xulosa shuki, BuxDUning umumiy yondashuvi fanlarni yirik kredit bilan uzoq muddat davomida o'qitish bo'lsa, Arkanzas modeli modulga asoslangan,

qisqa, aniq kompetensiyaviy natijaga yo'naltirilgan. Demak, har ikkala tizimda mavjud bo'lmagan bo'shliq leksik kompetensiyani korpus tahlillari asosida va inklyuziv guruh sharoitida rivojlantirishdir. Shu ma'noda, mazkur tadqiqot ushbu ikki modelning afzalliklarini uyg'unlashtiruvchi yondashuvni taklif etadi va ushbu integratsiya talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda samarali leksik tayyorgarlikni ta'minlashga imkon beradi.

O'zbekistonda ingliz tili leksik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan korpus tahlillar asosida inklyuziv o'quv materiallarini ishlab chiqish – til o'rganishning samaradorligini oshirish va turli ijtimoiy guruhlarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan yoki boshqa cheklovlarga ega shaxslarni ta'lim tizimiga qamrab olishning samarali usullaridan biridir. Korpus tahlili, o'quv materiallarini ishlab chiqishda tilning haqiqiy va tabiiy ishlatilishini aniqlash maqsadida haqiqiy matnlar, kitoblar, onlayn maqolalar va suhbatlar tahlilini amalga oshiradi.

Inklyuziv o'quv materiallarining asosiy xususiyatlari turli alifboli/shriftli bo'lishi, soddalashtirilgan matnlardan tashkil topganligi, texnologiya bilan integrallashganligi, vizual va interaktiv elementlardan iboratligida namoyon bo'ladi. Qolaversa, ko'zi ojiz talabalar uchun brayl alifbosidagi qo'llanmalar va o'quv adabiyotlarini yaratish muhim. Bunda *a) differentsiyalashgan yondashuv; b) vizuallashtirilgan materiallar; c) interaktiv o'quv materiallari* kabi tamoyillarni inobatga olish lozim.

Talabalarning ingliz tilidagi leksik kompetensiyasini oshirish uchun mikro-korpuslar (mini-corpora)ni tahlil qilish, so'z boyligini kengaytirish usullari, leksik mashg'ulotlar, xususan, moslashuvchan va maqsadli leksik birliklar (flexible/adaptable and focused lexical items)ni o'rganish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda maxsus so'zlar va iboralar jamlanmalari, masalan, kasbga yo'naltirilgan ingliz tili (biznez, turizm, meditsinaga xos), kundalik suhbatlar kabi so'zlar guruhlarini yaratish orqali talabalarni ularning amaliy ehtiyojlariga mos keladigan leksikaga o'rgatish mumkin.

O'zbekistonda mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni ushbu inklyuziv muhitda samarali faoliyat olib borishlari uchun yetarlicha ko'mak berish, professional bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda qayta tayyorlash maqsadga muvofiq. O'qituvchilarni inklyuziv materiallar bilan ishlashga tayyorlash va ularning leksik kompetensiyasini oshirish, samarali o'quv jarayonining asosi bo'ladi. Chastotali tahlil va kontekstual tadqiqotlar kabi korpusga asoslangan usullar maqsadli lug'atni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlarda talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim qo'llab quvvatlanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, inklyuziv ta'limda filolog talabalarning ingliz tili leksik kompetensiyasini korpus tahlillar asosida rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (7-rasmga qarang).

INKLYUZIV TA'LIMDA FILOLOG TALABALARNING LEKSIK KOMPETENSIYASINI KORPUS TAHLILLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MODELI

MAQSAD: inklyuziv ta'lim sharoitida barcha bo'lajak filolog talabalar, jumladan, ko'zi oqiz va zaif ko'ruvchilarning ingliz tili leksik kompetensiyasini korpus tahlillar asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ochib berish

1. MOTIVATSION-KOMMUNIKATIV KOMPONENT

Leksik kompetensiya hamda korpus tahlillarining mazmun-mohiyatini anglash, inklyuziv ta'lim sharoitida ularning ahamiyatini tushunish

Korpus asosidagi leksik tahlillar orqali lug'aviy boylikni kengaytirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va motivatsion omillarni shakllantirish

Turli talabalar ehtiyoji va til o'rganish usullarini hisobga olgan holda ularning kommunikativ kompetensiyasini, madaniyatlararo muloqotini hamda refleksiv va tanqidiy fikrlashini o'g'a suradigan amaliy topshiriqlar va mashqlarni ishlab chiqish

2. KOGNITIV KOMPONENT

Tushunish (comprehension)

- semantik talqin
- kontekstual talqin
- pragmatik talqin
- diskursiv talqin

Tahlil (analysis)

- Korpusdagi kollokatsiyalar, ko'p uchraydigan (frequency) birliklarni tahlil qilish va kontekstda baholash
- leksik-grammatik xatolarni aniqlash va tahlil qilish
- Matnning asosiy g'oyasi, mohiyati va lafsiollarni anglash

Qayta ishlash (restructuring)

- Leksik birliklarni inklyuziv muhit talabalariga mos darajada optimalashtirish
- Murakkab birliklarni soddalashtirilgan kollokatsiyalar bilan almashtirish
- Talabalami eng qulay va yuqori chastotali leksik variantlar bilan ta'minlash

3. AMALIY-FAOLIYAT KOMPONENT

Tayyorlov bosqichi

- Inklyuziv guruhlarda ishlash mexanizmlarini tushuntirish
- Korpus dasturlari va manbalari bilan tanishtirish
- Materiallarni inklyuziv ta'limga moslashtirish

Amaliyot bosqichi

- Individual, juft va guruhlarda ishlash
- Korpusdan foydalanib leksik tahlil qilish
- Leksik birliklarni kontekstda qo'llash

Takomillashtirish bosqichi

- Mustaqil korpus tahlillarini bajarish
- Natijalarni refleksiv baholash
- Inklyuziv o'quv jarayoniga yakuniy moslashtirish

4. REFLEKSIV-ANALITIK KOMPONENT

Formativ baholash

- Dars jarayoni da kuzatish va talabalarning korpusdan foydalangan holda bajaragan amaliy mashqlarini tahlil qilish

O'z-o'zini baholash va o'zaro baholash

- Inklyuziv guruhlarda o'z-o'zini baholash va hamkorklikdagi baholashni shakllantirish

Summativ baholash

- Leksik xatolarni tahlil qilish, koreksiya va o'z faoliyatini rivojlantirish rejasini (ILP) tuzish

5. TEXNOLOGIK-DIDAKTIK KOMPONENT

Interaktiv mashg'ulotlar: korpus platformalaridan (Sketch Engine, COCA, BNC va b.) foydalanish

Raqamli resurslar: multimodal materiallar; inklyuziv ta'limga moslashtirilgan elektron korpus modullaridan foydalanish

Differensial va individual yondashuv: maxsus ehtiyojli talabalar uchun soddalashtirilgan korpus topshiriqlari

Monitoring va refleksiv tahlil: talabaning leksik kompetensiyasi o'sish dinamikasini kuzatib borish

6. BAHOLOVCHI-AZORAT KOMPONENT

A'lo

Yaxshi

Qoniqarli

Qoniqarsiz

Natija: inklyuziv ta'lim muhitida o'quv jarayonini samarali tashkil etishga qodir, ingliz tili bo'yicha rivojlangan va funksional leksik kompetensiyaga ega, lingvistik korpuslardan ilmiy-metodik faoliyatda samarali foydalanish malakasiga ega bo'lgan zamonaviy filolog mutaxassislarni tayyorlash imkonini yaratadi.

7-rasm. Inklyuziv ta'limda filolog talabalarning ingliz tili leksik kompetensiyasini korpus tahlillar asosida rivojlantirish modeli

CEFR va metodik adabiyotlarga tayangan holda, *leksik bilim (lexical knowledge)*, *kontekstual qo'llash (lexical use in context)*, *semantik farqlash (semantic discrimination)*, *kollokatsion kompetensiya (collocational competence)*, *pragmatik moslik (pragmatic appropriacy)*, *mustaqil leksik strategiyalar (lexical strategies)* kabi leksik kompetensiya tarkibiy qismlari ilmiy ishda asos qilib olindi.

Quyidagi jadvalda inklyuziv ta'lim sharoitida filolog talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida taklif etilayotgan korpusga asoslangan mashqlar tizimi keltirilgan. Ushbu mashqlar leksik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning har biri CEFR talablari asosida muayyan darajalarga moslashtirilgan. Jadvalda mashqlarning metodik vazifasi, rivojlantiriladigan kompetensiya turi hamda CEFR darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli tarzda yoritilgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Mashqlarning leksik kompetensiya komponentlari va CEFR darajalari bilan bog'liqligi

Mashq turi	Rivojlantiriladigan leksik kompetensiya	CEFR darajasi	CEFR deskriptori bilan bog'liqligi
Korpusdan so'z chastotasini aniqlash	leksik bilim	A2–B1	Talaba yuqori chastotali so'zlarni ilg'aydi va ularning asosiy ma'nosini tushunadi
Korpus asosida so'zning kontekstual ma'nosini tahlil qilish	kontekstual qo'llash	B1–B2	So'zning turli kontekstlardagi ma'nosini farqlay oladi
Sinonim va yaqin ma'noli birliklarni korpus orqali taqqoslash	semantik farqlash	B2	Nozik semantik farqlarni ajrata oladi
Kollokatsiyalarni aniqlash va gaplarda qo'llash	kollokatsion kompetensiya	B2–C1	So'z birikmalarini tabiiy va to'g'ri qo'llaydi
Autentik korpus matni asosida gap tuzish	pragmatik moslik	B2	Nutq vaziyatiga mos so'z tanlay oladi
Mustaqil korpus qidiruvi asosida mini-loyiha	leksik strategiyalar	C1	Til o'rganishda mustaqil strategiyalardan foydalanadi

Xususan, korpus asosida so'z chastotasini aniqlashga qaratilgan mashqlar leksik bilimni rivojlantirsa, kontekstual tahlil va kollokatsiyalar bilan ishlashga oid mashqlar talabalarning semantik va pragmatik kompetentligini mustahkamlaydi.

Ingliz tili leksik kompetensiyasini baholashda xalqaro tajriba va O'zbekiston OTMLaridagi metodlar, darsliklar va o'quv rejalari bir-biridan ancha farqlanadi. Ingliz tilining leksik aspektlarini o'rganish uchun samarali metod sifatida korpusga asoslangan yondashuvlar xalqaro miqyosda keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston OTMLarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va dasturlar mavjud, ammo bu sohada korpusga asoslangan tahlillar va yangi metodlarni qo'llash hali keng tarqalgan emas. O'zbekistonning ba'zi OTMLarida bu metodlar qo'llanilsa ham, umumiy ta'lim tizimida yanada kengaytirilishi va

takomillashishi zarur. Zero, O‘zbekistondagi oliy ta’lim tizimida ham zamonaviy metodlar va texnologiyalar talabalarning leksik kompetensiyasini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Inklyuziv leksik kompetensiyani rivojlantirishda korpusga oid yondashuvning samaradorligi tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba predmeti, maqsadi va vazifalari, tajriba-sinov ishlari natijalariga matematik-statistik jihatidan ishlov berilgan va uning natijalari atroflicha tahlil qilingan. Pedagogik tajribaning maqsadi – inklyuziv guruhlarda leksik kompetensiyani rivojlantirishda korpus tahlillaridan foydalanishga asoslangan metodikaning, korpus tahlillari asosida ishlab chiqilgan amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish va ilmiy statistik asosini ta’minlashdan iborat. Mazkur maqsad yo‘lida talabalarning boshlang‘ich leksik kompetentlik darajasini diagnostika qilish; so‘rovnoma asosida talabalarning korpus tahlili haqidagi bilimlari va munosabatini o‘rganish; korpus asosida leksik materiallarni tanlash va ularni inklyuziv guruhlar uchun moslashtirish; talabalar uchun korpusga asoslangan mashg‘ulotlar majmuyini ishlab chiqish va tajriba guruhlariga joriy etish; amaliy-eksperimental mashg‘ulotlar o‘tkazish va nazorat guruhlar bilan solishtirish; nazorat va tajriba guruhlarini o‘rtasidagi farqlarni test, so‘rovnoma va kuzatuvlar orqali aniqlash; oraliq va yakuniy baholash (mini-testlar, chiqish testlari, yakuniy so‘rovnomalar); χ^2 kriteriysi, o‘rtacha qiymatlar, variatsiya koeffitsiyenti asosida matematik-statistik tahlil o‘tkazish; pedagogik xodimlar bilan alohida an’anaviy (offline) va masofaviy (online) so‘rovnomalar o‘tkazish hamda ularning metodik mulohazalarini umumlashtirish; tajriba natijalariga tayangan holda inklyuziv ta’lim uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Farg‘ona davlat universitetida amalga oshirildi. Umumiy tajriba guruhlaridagi talabalar soni 207 nafarni, nazorat guruhlaridagi talabalar soni esa, 189 nafarni tashkil etdi. Guruhlar inklyuziv tamoyillarga muvofiq heterogen (turli o‘quv qobiliyatlari, o‘rganish ehtiyojlari va imkoniyatlari bor talabalarga ega) tarkibda shakllantirildi. Hozirgi kunda Buxoro davlat universitetida umumiy 42 nafar ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi talaba turli ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olmoqda. Buxoro davlat universitetidagi tajriba-sinov davomida tajriba va nazorat guruhlarida 158 nafar bo‘lajak filolog talaba qatnashdi. Shulardan 6 tasi ko‘rish imkoniyati cheklanganlarni tashkil qiladi (10-ilovaga qarang).

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetidagi tajriba-sinov davomida tajriba va nazorat guruhlarida 118 nafar filolog talaba qatnashdi. Farg‘ona davlat universitetidagi tajriba-sinov davomida tajriba va nazorat guruhlarida 120 nafar filolog talaba qatnashdi. Mazkur tajriba-sinov o‘tkazilgan universitetlar talabarining statistik ma’lumotlari dissertatsiya hamda ilovalarda to‘liq ko‘rsatilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda taklif etilgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov jarayonlari yakunida olingan natijalarni o‘zaro taqqoslash orqali aniqlanadi. Statistik tahlil usullari asosida ilgari surilgan g‘oyaga ko‘ra, tadqiqotning samaradorligi nazorat va tajriba guruhlarini ishtirokchilarining yakuniy natijalari orasidagi farqni aniqlash orqali baholanadi. Shu maqsadda K.Pirsonning χ^2

kriteriyasi (χ^2 -kvadrat testi)¹⁰ yordamida tajriba va nazorat guruhlari talabalarining birinchi bosqich yakuniy ko‘rsatkichlari ikkinchi, uchinchi hamda yakuniy bosqich ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Bu jarayonda gipotezalar quyidagicha belgilandi:

nol gipoteza (H): tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida tajriba-sinov ishlari yakunida talabalarining bilim darajasi sezilarli farq qilmaydi;

muqobil gipoteza (H): tajriba va nazorat guruhlari natijalari orasida sezilarli tafovut mavjud.

Mazkur gipotezalarni tekshirishda, avvalo, empirik qiymatning kritik qiymatga nisbatan o‘rni aniqlanadi. Statistik hisoblashlarda ahamiyatlilik darajasi (α) 0,05 deb belgilandi. Bu holda ishonchlilik ayirmasi $1 - \alpha$ ning $1 - 0,05 = 0,95$, ya’ni 95 % ishonchlik darajasiga teng ekanligi aniqlandi.

χ^2 ning $\alpha = 0,05$ bo‘lgandagi kritik qiymati 5-jadvalda berilgan.

5 – jadval.

χ^2 ning $\alpha = 0,05$ bo‘lgandagi kritik qiymati

$M-1$	1	2	3	4	5
χ^2	3,84	5,99	7,81	9,49	11,07

Yuqorida qayd etilganidek, talabalarining boshlang‘ich bilim darajalari ham alohida o‘rganildi. Tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan talabalar bo‘yicha dastlabki ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan (6-jadvalga qarang):

6-jadval.

Tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarining dastlabki va yakuniy natijalari

Guruhlar	Talabalar soni	Baholar							
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
		“2”		“3”		“4”		“5”	
Buxoro davlat universiteti									
Tajriba	82	26	0	34	16	12	48	10	18
Nazorat	76	29	8	21	28	18	24	8	16
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti									
Tajriba	62	27	0	17	9	9	36	9	17
Nazorat	56	24	9	16	16	8	17	8	14
Farg‘ona davlat universiteti									
Tajriba	63	27	0	18	12	9	37	9	14
Nazorat	57	24	6	17	22	8	19	8	10
Barcha mintaqalar bo‘yicha									
Tajriba	207	80	0	69	37	30	121	28	49
Nazorat	189	77	23	54	66	34	60	24	40

Shakllantirilgan guruhlarda o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligi maxsus test va anketa-so‘rovnoma natijalari orqali belgilandi hamda talabalar bilim

¹⁰ Кацман Ю. Я. Теория вероятностей, математическая статистика и случайные процессы. Учебник. – Томск: Издательство: Томского политехнического университета, 2013. – 77 с.

darajasining yakuniy ko'rsatkichlari 7-jadvalda keltirildi. Ushbu natijalarga tayangan holda har uch mintaqa oliy ta'lim muassasasi bo'yicha alohida empirik qiymatlar aniqlanib, matematik-statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazorat va tajriba guruhlar uchun o'tkazilgan test va anketa-so'rovnoma natijalari 7-jadvalda jamlangan.


7-jadval.

Uch mintaqa oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba-sinov ishlari yuzasidan umumiy natijalari

Ta'lim muassasalari	Ko'rsatkich	Tajriba guruhlar				Nazorat guruhlar			
		Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%	Tajriba boshida	%	Tajriba oxirida	%
Uch mintaqa bo'yicha jami	A'lo	28	13	49	24	24	13	40	21
	Yaxshi	30	15	121	58	34	18	60	32
	Qoniqarli	69	33	37	18	54	28	66	35
	Qoniqarsiz	80	39	0	0	77	41	23	12
Jami:		207	100	207	100	189	100	189	100

Natijalar ko'rsatdiki, tavsiya etilayotgan metodika o'zini oqladi va gipoteza tasdiqlandi. Tajriba-sinov ishlari yakunida nazorat hamda tajriba guruhlar bilim darajasida sezilarli tafovut yuzaga keldi.

Tajriba guruhidagi ko'rsatkichlar nazorat guruhidagiga nisbatan 12% ($1,12 - 1,00 = 0,12$) yuqori ekanligi ushbu natijalar asosida ma'lum bo'ldi.



8-rasm. Uchta mintaqada o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari diagrammasi

Olingan natijalar tahlilidan ma'lumki, o'qitish samaradorligini baholash ko'rsatkichining birdan katta chiqishi va bilish darajasini belgilovchi mezonning

musbat qiymatga ega bo'lishi tajriba guruhidagi natijalar nazorat guruhidan yuqoriligini ko'rsatadi.

Demak, tajriba-sinov jarayonining yakuniy bosqichida olingan natijalar metodikaning samarali ekanligini tasdiqladi va tadqiqotning asosiy g'oyalari dissertatsiya matnida o'z ifodasini topdi.

XULOSA

1. Korpus tahlillar inklyuziv ta'limda talabalar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan zamonaviy va samarali vosita hisoblanadi va lingvistik murakkablikni kamaytirish, individual ta'lim resurslarini yaratish va texnologiyalardan foydalanishda qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. O'zbekistonda ushbu usulning qo'llanilishi barcha o'quv fanlari doirasida, jumladan, ingliz tili ta'limi sifatini oshirishga va til o'zlashtirishda barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

2. Korpus tahlillar inklyuziv ta'limda talabalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda leksik kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Korpus materiallari tahlili asosida ishlab chiqilgan ta'limiy va interaktiv resurslar O'zbekistonda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirishga hamda uni global talablarga moslashtirishga yordam beradi.

3. Inklyuziv ta'lim tamoyillariga asoslangan korpus asosidagi ta'lim avtonomiya va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali leksik kompetensiyani oshirishda muhim salohiyatga ega. Zotan, muvaffaqiyatli integratsiya inklyuziv ta'lim muhitini yaratishi uchun an'anaviy usullarni o'z ichiga oladi hamda DDL strategiyalariga moslashishda talabalarning ehtiyojlari, imtiyozlari va muammolariga javob beradigan muvozanatli yondashuvni taqozo etadi.

4. Kuzatishlarimizda ingliz tili leksik kompetensiyasini baholashda dunyo tajribasi va O'zbekiston OTMLaridagi metodlar, darsliklar va o'quv rejalari bir-biridan ancha farq qilishi ko'rinadi. Korpusga asoslangan yondashuvlar, ingliz tilining leksik aspektlarini o'rganish uchun samarali metodlar sifatida xalqaro tajribada keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston OTMLarida ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va dasturlar mavjud bo'lsa-da, mazkur sohada korpusga asoslangan tahlillar va yangi metodlarni qo'llash hali keng tarqalmagan. Vaholanki, mazkur zamonaviy yondashuv va metodlar O'zbekiston ta'lim tizimida takomillashtirilishi zarur.

5. O'zbekistonda ingliz tili o'qituvchilari uchun inklyuziv o'quv materiallarini ishlab chiqish, talabalarning leksik kompetentligini oshirish uchun korpus tahlillarni qo'llashni bilishlari juda muhim. Bu yondashuv talabalarning ehtiyojlariga javob beradigan, ko'rgazmali, interaktiv va foydali o'quv materiallarini yaratishga yordam beradi va til o'rganish jarayonida samaradorlikni ta'minlay oladi. Korpus tahlillar filologiya talabalari duch keladigan leksik muammolarni hal qiluvchi inklyuziv, samarali o'quv materiallarini loyihalash uchun uslubiy asos vazifasini bajaradi. Korpusga asoslangan yondashuv talabalarga nutqda faol ishlatiladigan birliklarni va ularning kontekstual

qo'llanilishini tahlil qilish imkonini beradi, tabiiyki, bu talaba leksik kompetentligining mustahkamlanib, o'sib borishini va yangi lug'at birliklarini yozma hamda og'zaki nutqda samarali qo'llay olish uquvini oshiradi.

6. Korpus metodologiyalari inklyuziv ta'limda leksik kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim vositalarni taqdim etadi, o'qitish jarayoni va amaliyoti ma'lumotlarga asoslangan va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Real hayotiy matnlar, interaktiv materiallar va ko'ptilli resurslar talabalarga so'zlarni kontekst asosida tez va oson tushunishga ko'maklashadi. Shuningdek, leksik birliklarni qayta ishlash, takrorlash, kreativ yondashuvlar orqali talabalarning leksik kompetentligi mustahkamlanadi.

7. Ingliz tili inklyuziv ta'limi sharoitida talabalarning o'zaro hamkorligini rag'batlantirish, turli malaka darajalariga ega talabalarning juftlik yoki kichik guruhlar shaklida birgalikda korpus ma'lumotlart tahlilini amalga oshirishlari uchun muayyan vaziyatlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv tengdoshlar o'rtasida ingliz tilida o'zaro muloqotni kuchaytiradi, shuningdek, talabalar ilgari notanish bo'lgan korpus vositalari bilan mustaqil ishlashi jarayonida yuzaga keladigan psixologik to'siqlar sezilarli darajada kamayadi.

8. Korpus texnikasini yordamchi texnologiyalar bilan birlashtirgan holda gibrid modellarini yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish inklyuziv ta'limda leksik kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur. Korpusga asoslangan yondashuvlar an'anaviy usullarning cheklovlarini hisobga olgan holda lug'atni o'rgatish uchun o'quvchilarga yo'naltirilgan, ma'lumotlarga asoslangan metodlar majmuyini taklif qiladi. Mazkur usullarni inklyuziv ta'limga integratsiyalash orqali leksik kompetensiyani samarali oshirishga erishiladi.

9. Ilmiy tadqiqot ishining pedagogik tajriba mazmuni va empirik tadqiqot natijasi ko'rsatadiki, korpusga asoslangan o'qitish an'anaviy usullarga nisbatan yuqori test natijalari va so'z boyligini yanada kengaytirishga olib keladi. Ilmiy tadqiqot ishining statistik tahlili esa, metodikaning samaradorligini matematik tahlillar asosida tasdiqladiki, bu inklyuziv sharoitda korpus texnologiyalarini tatbiq etish ingliz tili ta'limi uchun eng samarali va zamonaviy yo'l ekanligini dalillaydi.

TAVSIYALAR

1. Inklyuziv guruhlarda korpus tahliliga asoslangan modulni majburiy o'quv komponenti sifatida kiritish hamda talabalarning ehtiyojlariga mos keladigan yuqori chastotali so'zlar va iboralarga qaratilgan materiallarni tayyorlash uchun COCA yoki Sketch Engine kabi bepul onlayn resurslardan foydalanish muhim.

2. Inklyuziv ta'lim sharoitida talabalarning ingliz tilini o'rganishlari jarayonida leksik kompetensiyani rivojlantirish uchun kontekstual tahlil, kolokatsion xaritalar, konkordans chiziqlari bilan ishlashni muntazam joriy etish maqsadga muvofiq.

3. Texnologik resurslari cheklangan guruhlar uchun oflayn korpus paketlar yaratish joiz.

4. Pedagoglar uchun “inklyuziv korpus pedagogikasi” bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish lozim.

5. Bilim darajasi pastroq talabalar uchun fan dasturini modifikatsiya qilish (moslashtirish) hamda differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish tavsiya qilinadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC
DEGREES PhD.03/2025.27.12.PED.08.05 AT BUKHARA
STATE UNIVERSITY**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

FAYZIEVA MALIKAJON CHOSHOVNA

**DEVELOPING PHILOLOGY STUDENTS' LEXICAL COMPETENCE
BASED ON CORPUS ANALYSES IN INCLUSIVE EDUCATION
(on the example of English)**

13.00.02 – Theory and methodology of education and upbringing (English)

**DISSERTATION ABSTRACT
FOR A DOCTOR OF PHILOSOPHY DEGREE (PhD)
IN PEDAGOGICAL SCIENCES**

Bukhara – 2026

The theme of the dissertation for a Doctor of Philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under № B2025.1.PhD/Ped9493.

The dissertation has been accomplished at Bukhara State University

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been placed on the website of the Scientific Council (www.buxdu.uz) and "Ziyonet" Information-educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Ataboev Nozimjon Bobojon ugli**
Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

Official opponents: **Bakaev Najmiddin Bakaevich**
Candidate of Pedagogical Sciences, Professor



Isroilova Dildora Muxtorovna
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)


Leading organization: **Karshi State University**


The dissertation defense will be held on " 2 " June 2026 at 11:00 at the meeting of the Scientific Council for awarding scientific degrees PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 at Bukhara State University (Address: 200118, Bukhara, M.Iqbol street, 11. Phone: (65) 221-29-14; Fax: (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

The dissertation can be reviewed in the Information-Resource center of Bukhara State University (registered under № P/903). (Address: 200118, Bukhara, M.Iqbol street, 11. Phone: (65) 221-25-87.)

The abstract of the dissertation was distributed on " 19 " May 2026
(Registry record № 20 dated " 20 " May 2026).



M.B.Akhmedova
Vice-chairperson of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Filology, (DSc.)


Ya.B.Ruziev
Scientific Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Philology, Dotsent


Sh.Sh.Olimov
Chairperson of the Scientific Seminar under
Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Science in Pedagogy,
Professor

INTRODUCTION (annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. The process of teaching foreign languages worldwide is shifting from the traditional grammatical translation method to communicative language teaching (CLT) methods that develop speaking and communication skills in a foreign language in accordance with modern requirements. In particular, task-based and project-based learning, content and language integrated learning, blended learning, language teaching through artificial intelligence, computer-assisted language learning, and especially the preparation of educational materials based on corpus analysis define global criteria for shaping the modern generation. The high level of scientific and practical effectiveness of the linguistic corpus, particularly its ability to compile a vast linguistic database of communication forms and speech patterns of native speakers in the target foreign language, allows language learners to develop their lexical and grammatical competencies based on authentic examples. From this perspective, the improvement of foreign language teaching through linguistic corpus analysis tailored for inclusive education, as proposed in this study, is relevant to the demands of modern science.

In global inclusive education, the most advanced methods of foreign language teaching, especially for visually impaired students, include audio-based communicative approaches, Braille-based foreign language instruction, teaching through screen readers and AI tools, oral communication-based foreign language teaching systems, the natural approach, podcasts, audiobook and audio dialogue-based instruction, speech-to-text and text-to-speech integration, as well as foreign language teaching based on large language databases, including corpora. Regarding the application of corpus analysis in inclusive education, it should be noted that the content and volume of various linguistic corpora provide authentic information about the modern and actual usage of specific lexical units, phrases, phraseological units, or terms. In this context, corpora become convenient tools for analyzing the functioning of lexical units in morphology, syntax, and vocabulary, as well as in translation theory and practice, determining their formal or informal usage registers. Indeed, new-generation corpora are of great importance in developing students' lexical competence as a crucial resource for enhancing integrative English language skills in inclusive education.

In our country, strategic documents in the field of education for 2019-2025, including the "Uzbekistan Partnership Compact for Education Reform," define strengthening inclusive education and ensuring equal opportunities for all at all levels of education as the main goal. Within the framework of these documents, inclusive standards, teacher training, and educational standards are being updated, and national roadmaps are creating a foundation for preparing teachers for inclusive instruction (including foreign language teaching) and adapting educational materials (audio, Braille, digital formats)¹. In this context, meeting societal needs in inclusive education and enhancing learners' lexical diversity in integrated English language skills through corpus-based analysis within modern methodological approaches constitute pressing demands of the present time. This

¹ Uzbekistan partnership compact for education reform. URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5671/file> (Murojaat sanasi: 29.11.2025)

dissertation contributes, to a certain extent, to the implementation of the objectives set forth in the Law of the Republic of Uzbekistan LRU No.637 "On Education" dated September 23, 2020, Presidential Edict No.6108 "On Measures for the Development of Education and Science in the New Period of Uzbekistan's Development" dated November 6, 2020, Presidential Edict No.60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January 28, 2022, Presidential Edict No.134 "On Approving the National Program for the Development of School Education for 2022-2026" dated May 11, 2022, Presidential Edict No.158 "On the Strategy "Uzbekistan-2030" dated September 11, 2023, Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan Presidential Decree No.209 "On Measures to Improve the Quality of Education and Further Enhance the Activities of Specialized Boarding Schools for Blind and Visually Impaired Children" dated April 18, 2022, Resolution No. PQ-407 of October 20, 2022, "On Additional Measures for the Development of the Uzbek Sign Language and the Braille Alphabet," and Resolution No. 34 of January 19, 2022, "On Additional Measures to Improve the Study of Foreign Languages," adopted by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, as well as in other relevant regulatory and legal documents in the field.

Compliance of the research with the priority directions of science and technology development of the republic. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction I of the development of science and technology of the republic: "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state."

Problem development status. Using computer technologies, corpus linguistics studies, teaches, and analyzes language. In the last decade, interest in the use of language corpora and computer tools for language education has increased significantly. Based on the nature and laws of a particular language, the analysis of language using computer programs has opened wide opportunities for applying complementary analytical results from linguistics and computer science, as well as linguistics and statistics, to language teaching. In particular, among the scientists who contributed to the development of this field, one can cite the scientific works of researchers such as B. Kennedy, S. Gries, D. Biber, S. Conrad, and J. Sinclair². In our country, scholars such as G.Kh.Bokiyeva, J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, L.T.Akhmedova, M.T.Iriskulov, and F.M.Rashidova³ have engaged in the methodology of language teaching. Additionally, scholars such as

